**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI**
**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Rektor ______________ Sh. Sirojiddinov
2023-yil 28-avgust

# ESKI O‘ZBEK YOZUVI MANBALARINI O‘QISH VA TUSHUNISH AMALIYOTI

**fanining o‘quv dasturi (sillabus)**

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200 000 – San’at va gumanitar fanlar |
| **Ta’lim sohasi:** | 230 000 – Tillar |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60230300-Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (O‘zbek tili) |

**Toshkent-2023**

| Fan/modul kodi | Fan/modul turi | Ta'lim tili | Ishlab chiqilgan o'quv yili |
|---|---|---|---|
| 302 EOYMO'TA 3 4 | tanlov | o'zbek | 2023/2024 |

| Semestr | Har bir semestrdagi fan/modulning nomi | ECTS - Kreditlar | Haftalik dars soatlari | O'quv mashg'ulotlari (soat) | | | | | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Jami: | ma'ruza | seminar | amaliy | laboratoriya | | |
| 6 | Eski o'zbek yozuvi manbalarini o'qish va tushunish amaliyoti | 4 | 4 | 60 | 10 | - | 50 | - | 60 | 120 |
| | **Jami:** | **4** | **4** | **60** | **10** | **-** | **50** | **-** | **60** | **120** |

## I. FANNING MAZMUNI

**Fanni o'qitishdan maqsad**: Eski o'zbek tili – eski o'zbek tilining rivojlanish tarixi, taraqqiyot davrlari, eski o'zbek tiliga xos bo'lgan grammatik normalar, arab yozuviga asoslangan eski o'zbek yozuvining tarixi, jadidlar tomonidan yozuvning isloh qilinishi, isloh qilinish sabablari, mazkur yozuvda bitilgan manbalarni bugungi kunda tutgan o'rni hamda ularni amalga tatbiq etish ko'nikmasini shakllantirish.

**Fanning vazifasi** – bakalavriatda eski o'zbek tili haqida yetarli ilmiy ma'lumotlar berish, ilmiy axborotlar bilan ishlash ko'nikmalarini va malakalarini shakllantirish, o'qish, yozish, arab imlosidagi qo'lyozma, toshbosma gazeta, jurnal va ilmiy asarlarni o'qishga, ulardan o'zlarining ilmiy faoliyatlari davomida zarur bo'lgan axborotlarni olishga o'rgatish, joriy imloga tabdil va tahlil qila olish ko'nikmalarini shakllantirish.

## II. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**

– matnshunoslikda va tilshunoslikdagi matn tushunchasining farqi, arab yozuvi tarixi, matnshunoslikning dolzarb muammolari, tabdil, transkripsiya, transliteratsiya, mumtoz matnlarni tushunishda lug'at ilmining o'rni haqida **bilimlarga;**

– Nasta'liq xatidagi toshbosma va qo'lyozma kitoblarni o'qiy olish, XX asr boshi isloh qilingan alifboni o'qib tushunish, nazmni nasriy bayon qilish, mumtoz matnni muxtasar va to'la sharhlash, adabiy manbani tasniflash **ko'nikmalariga;**

– Eski o'zbek yozuvini, qo'lyozma kitobda unvonning ahamiyatini, mumtoz matnda ilmiy ko'rsatkich imkoniyatini, qo'lyozma turlarini, katologlardagi ilmiy tavsif tuzilishlari haqida **malakaga** ega bo'lishi lozim.



## III. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

- ma'ruzalar;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

## IV. TALABALAR KREDITLARNI OLISH TARTIBI

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

### TALABALARNI BAHOLASH TARTIBI:

Talabalarning bilimini baholash tartibi O'zbekiton Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

**1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.**

**Oraliq nazorat:** O'tilgan mavzular asosida yozma shaklda o'tkaziladi.

**Yakuniy nazorat:** Semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha yozma shaklda o'tkaziladi.

***Izoh:*** *Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o'tkazilishi mumkin.*

*Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.*

*Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muyyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.*

**2. Talabalarning bilimi baholash mezonlari:**

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a'lo) baho;**

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho**;

talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho;**

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda **– 2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

## V. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI

### 6-SEMESTR

1. **Ma'ruza mashg'ulotlari:**

| № | Ma'ruza mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| 1 | Fanning predmeti va vazifalari. Arab alifbosi asosidagi eski o'zbek yozuvi va uning o'ziga xosliklari | Eski o'zbek tili va yozuvi faning predmeti, maqsadi, vazifalari tushuntiriladi. Arab alifbosi asosidagi eski o'zbek yozuvini o'rganish bo'lajak pedagoglar faoliyatiga qanday ahamiyatga egaligi tushuntiriladi. | 2 |
| 2 | Eski o'zbek tili va yozuvining rivojlanish tarixi | Eski o'zbek tili O'rta Osiyo adabiy tilining bevosita davomidir. O'rta Osiyo adabiy tilidagi asosiy xususiyatlar eski o'zbek tilida davom etadi. | 2 |
| 3 | Eski o'zbek tili va hozirgi o'zbek adabiy tili o'rtasidagi farqli jihatlar | Eski o'zbek tilidagi undoshlar tavsifiEski o'zbek tili undoshlarini hozirgi o'zbek tili undoshlari bilan solishtirish. | 2 |
| 4 | Arab yozuvining O'rta Osiyo xalqlari hayotiga kirib kelishi | Arab yozuvining kirib kelioshi va taraqqiyotida Islom dinining o'rni. O'rta Osiyodagi Sug'd, Uyg'ur, O'rxun-Yenisey kabi yozuvlarining iste'moldan chiqish sabablari | 2 |
| 5 | Eski o'zbek yozuvining isloh qilinishi va uning sabablari | Arab alifbosida "z" tovushini ze, zol, zod va zo harflari, "s" tovushini se, sin va sod harflari, "t" tovushini esa te, to harflari ioda etib kelgan | 2 |
| | | | |
| | | Jami | 10 |

## 2. AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA/TAVSIYALAR

**Amaliy mashg'ulotlari o'tkazish uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

| № | Amaliy mashg'ulot mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| 1 | Atoiy "Devon" ini o'qish | Atoiyning "Devon" ini o'qish, ko'chirib yozish. Matnlarda uchragan o'zlashma so'zlarni tahlil qilish. Asardagi matnlarni joriy yozuvga tabdil qilish | 4 |
| 2 | Yassaviy "Devoni hikmat" ini o'qish | Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" ini o'qish, ko'chirib yozish. Matnlarda uchragan o'zlashma so'zlarni tahlil qilish. Asardagi matnlarni joriy yozuvga tabdil qilish | 6 |
| 3 | Navoiy "Muhokimat-ul lug'atayn" asari | Alisher Navoiyning "Muhokimat-ul lug'atayn" asaridan parchalar o'qish, ko'chirib yozish. o'zlashma so'zlarni tahlil qilish. Asardagi matnlardan ayrim parchalarni amaldagi yozuvga tabdil qilish | 4 |
| 4 | Boburning "Boburnoma" asari | Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarining ayrim qismlarini o'qish, ko'chirib yozish. Matnlarda uchragan o'zlashma so'zlarni tahlil qilish. Asardagi matnlardan ba'zilarini joriy yozuvga tabdil qilish | 4 |
| 5 | Isloh qilingan yozuvda Toshkentda nashr qilingan Obidiyning "Taraqqiy" nomli gazetasi | Ismoil Obidiyning 1905-yilda nashr etilgan "Taraqqiy" gazetasidan parchalar o'qish, mashq daftariga ko'chirib yozish, matnlarda uchragan unlilarni va yozilishida o'zgartirilgan undoshlarni aniqlash hamda ularni tahlil qilish, gazetadagi isloh qilingan arabiy yozuviga asoslangan eski o'zbek yozuvidagi matnlarni joriy yozuvda tabdil qilish | 4 |
| 6 | Isloh qilingan yozuvda Toshkentda nashr qilingan muharrir Munavvarqorining "Xurshid" nomli gazetasi | Munavvarqorining 1905-yilda nashr etilgan "Xurshid" gazetasidan parchalar o'qish, mashq daftariga ko'chirib yozish, matnlarda uchragan unlilarni va yozilishida o'zgartirilgan undoshlarni aniqlash hamda ularni tahlil qilish, gazetadagi isloh qilingan arabiy yozuviga asoslangan eski o'zbek yozuvidagi matnlarni joriy yozuvda tabdil qilish | 4 |
| 7 | Isloh qilingan yozuvda Toshkentda nashr qilingan muharrir Avloniyning "Shuhrat" nomli gazetasi | Abdulla Avloniyning 1907-1908-yillarda nashr etilgan "Shuhrat" gazetasidan parchalar o'qish, mashq daftariga ko'chirib yozish, matnlarda uchragan unlilarni va yozilishida o'zgartirilgan undoshlarni aniqlash hamda ularni tahlil qilish, gazetadagi isloh qilingan arabiy yozuviga asoslangan eski o'zbek yozuvidagi matnlarni joriy yozuvda tabdil qilish | 4 |
| 8 | Isloh qilingan yozuvda Toshkentda nashr qilingan muharrir Bektemirovning | Ahmadjon Bektemirovning 1907-1908-yillarda nashr etilgan "Osiyo" gazetasidan parchalar o'qish, mashq daftariga ko'chirib yozish, matnlarda uchragan unlilarni va yozilishida o'zgartirilgan undoshlarni aniqlash | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | "Osiyo" nomli gazetasi | | |
| 9 | Isloh qilingan yozuvda Toshkentda nashr qilingan muharrir Saidkarimboyning "Tujjor" nomli gazetasi | Saidkarimboy Saidazimboy o'g'lining 1907-1908-yillarda nashr etilgan "Tujjor" gazetasidan parchalar o'qish, mashq daftariga ko'chirib yozish, matnlarda uchragan unlilarni va yozilishida o'zgartirilgan undoshlarni aniqlash hamda ularni tahlil qilish, gazetadagi isloh qilingan arabiy yozuviga asoslangan eski o'zbek yozuvidagi matnlarni joriy yozuvda tabdil qilish | 4 |
| 10 | Isloh qilingan yozuvda Buxoroda nashr qilibgan muharrir Yusufzodaning "Buxoroyi sharif" nomli gazetasi | Mirzo Jalol Yusufzodaning 1912-yilda nashr etilgan "Buxoroyi sharif" gazetasidan parchalar o'qish, mashq daftariga ko'chirib yozish, matnlarda uchragan unlilarni va yozilishida o'zgartirilgan undoshlarni aniqlash hamda ularni tahlil qilish, gazetadagi isloh qilingan arabiy yozuviga asoslangan eski o'zbek yozuvidagi matnlarni joriy yozuvda tabdil qilish | 2 |
| 11 | Isloh qilingan yozuvda Buxoroda nashr qilibgan muharrir G'iyos Maxsum Husayniyning "Turon" nomli gazetasi | G'iyos Maxsum Husayniyning 1912-yilda nashr etilgan "Turon" gazetasidan parchalar o'qish, mashq daftariga ko'chirib yozish, matnlarda uchragan unlilarni va yozilishida o'zgartirilgan undoshlarni aniqlash hamda ularni tahlil qilish, gazetadagi isloh qilingan arabiy yozuviga asoslangan eski o'zbek yozuvidagi matnlarni joriy yozuvda tabdil qilish | 2 |
| 12 | Isloh qilingan yozuvda Qo'qonda nashr qilingan muharrir Obidjon Mahmudovning "Sadoyi Farg'ona" nomli gazetasi | Obidjon Mahmudovning 1913-yilda nashr etilgan "Taraqqiy" gazetasidan parchalar o'qish, mashq daftariga ko'chirib yozish, matnlarda uchragan unlilarni va yozilishida o'zgartirilgan undoshlarni aniqlash hamda ularni tahlil qilish, gazetadagi isloh qilingan arabiy yozuviga asoslangan eski o'zbek yozuvidagi matnlarni joriy yozuvda tabdil qilish | 2 |
| 13 | Isloh qilingan yozuvda Buxoroda nashr qilibgan muharrir Ubaydullaxo'janing "Sadoyi Turkiston" nomli gazetasi | Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayevning 1913-yilda nashr etilgan "Sadoyi Turkiston" gazetasidan parchalar o'qish, mashq daftariga ko'chirib yozish, matnlarda uchragan unlilarni va yozilishida o'zgartirilgan undoshlarni aniqlash hamda ularni tahlil qilish, gazetadagi isloh qilingan arabiy yozuviga asoslangan eski o'zbek yozuvidagi matnlarni joriy yozuvda tabdil qilish | 2 |



| | | | |
|---|---|---|---|
| 14 | Isloh qilingan yozuvda Buxoroda nashr qilibgan muharrir Ubaydullaxo'janing "Sadoyi Turkiston" nomli gazetasi | Obidjon Mahmudovning 1917-1918-yillarda nashr etilgan "Tirik so'z" gazetasidan parchalar o'qish, mashq daftariga ko'chirib yozish, matnlarda uchragan unlilarni va yozilishida o'zgartirilgan undoshlarni aniqlash hamda ularni tahlil qilish, gazetadagi isloh qilingan arabiy yozuviga asoslangan eski o'zbek yozuvidagi matnlarni joriy yozuvda tabdil qilish | 2 |
| 15 | Isloh qilingan yozuvda Toshkentda nashr qilibgan muharrir Temirbek Xudoyorxonovning "Turk so'zi" nomli gazetasi | Temirbek Xudoyorxonovning 1917-1918-yillarda nashr etilgan "Turk so'zi" gazetasidan parchalar o'qish, mashq daftariga ko'chirib yozish, matnlarda uchragan unlilarni va yozilishida o'zgartirilgan undoshlarni aniqlash hamda ularni tahlil qilish, gazetadagi isloh qilingan arabiy yozuviga asoslangan eski o'zbek yozuvidagi matnlarni joriy yozuvda tabdil qilish | 2 |
| 16 | Isloh qilingan yozuvda Qo'qonda nashr qilibgan muharrir Bo'lat Soliyevning "Sadoyi Turkiston" nomli gazetasi | Bo'lat Soliyevning 1917-1918-yillarda nashr etilgan "El bayrog'i" gazetasidan parchalar o'qish, mashq daftariga ko'chirib yozish, matnlarda uchragan unlilarni va yozilishida o'zgartirilgan undoshlarni aniqlash hamda ularni tahlil qilish, gazetadagi isloh qilingan arabiy yozuviga asoslangan eski o'zbek yozuvidagi matnlarni joriy yozuvda tabdil qilish | 2 |
| | | **Jami:** | **50s** |

## 3. MUSTAQIL TA'LIM ISHLARI

"Eski o'zbek tili va yozuvi " fanini o'rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va ko'nikma hosil qilish uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib, fan o'qituvchisi rahbarligida mustaqil ish bajaradilar. Mustaqil topshiriqlarni bajarish jarayonida talabalar eski o'zbek tili va yozuvini o'rganadilar va eski o'zbek tilidagi mumtoz adabiy manbalarni asliyat asosida o'qiydilar, tahlil va talqin qiladilar, qo'shimcha adabiyotlar hamda internet ma'lumotlaridan foydalanib, referatlar va ilmiy maqolalar tayyorlaydilar, amaliy mashg'ulotlari mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, muayyan mavzuda ko'rgazmali shaklda va slaydlar orqali taqdimotlar o'tkazadilar.

**Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fan xususiyatlaridan kelib chiqib, quyidagi shakllardan foydalanadi:**

| № | Mustaqil ta'lim mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| 1 | Eski o'zbek tili va | Eski o'zbek tili va yozuvi ayniqsa Yangi | 4 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | yozuvining hozirgi davr talablariga xox ahmiyati | O'zbekiston yosh nasli uchun o'tgan ming yillik tarixni, til va adabiyotni o'rganish manbai sifatida xizmat qiladi | |
| 2 | Elbekning "Go'zal yozg'ichlar" asari | Elbek taxallusi bilan mashhur Mashriq Yusupovning "Go'zal yozg'ichlar" asaridagi "O'zbek qizig'a" va "Bahorning kelishi" matnlarini o'qish, joriy yozuvga tabdil qilish | 4 |
| 3 | Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari | Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asaridagi "Tarbiyaning zamoni", "Badan tarbiyasi", "Fikr tarbiyasi", "Axloq tarbiyasi" matnlarini ko'chirib yozish va tabdil qilish | 4 |
| 4 | Bebudiyning mashhur asari "Padarkush" | Mahmudxo'ja Bebudiyning mashhur asari "Padarkush" dramasining birinchi bo'limi matnlarini ko'chirib yozish va tabdil qilish | 4 |
| 5 | Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari | Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asaridagi "Nazofat", "Sa'y va g'ayrat", "Riyozat", "Shijoat" matnlarini ko'chirib yozish va tabdil qilish | 4 |
| 6 | Elbekning "Go'zal yozg'ichlar" asaridagi "O'gut" va "O'zbek qizi" matnlari | Elbek "Go'zal yozg'ichlar" asaridagi "O'gut" va "O'zbek qizi" matnlarini o'qish, joriy yozuvga tabdil qilish. | 4 |
| 7 | Qodiriyning "Kalvak maxsumning xotira daftaridan" hajviy asari | Abdulla Qodiriyning "Kalvak maxsumning xotira daftaridan" hajviy asaridagi "Qaviidul umaro" bobi matnnini ko'chirib yozish va tabdil qilish | 4 |
| 8 | Elbekning "Go'zal yozg'ichlar" asaridagi "Turmush ko'rinishlari" va "Hunarsiz kishi o'limga yaqindir" matnlari | Elbek "Go'zal yozg'ichlar" asaridagi "Turmush ko'rinishlari" va "Hunarsiz kishi o'limga yaqindir" matnlarini o'qish, joriy yozuvga tabdil qilish | 4 |
| 9 | Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari | Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asaridagi "Hayo", "Idrok va zako", "Hifzi lison", "Iqtisod" matnlarini ko'chirib yozish va tabdil qilish | 4 |



| | | | |
|---|---|---|---|
| 10 | Fitratning "hurriyat" gazetasida bosilgan "Yurt qayg'usi" nomli she'ri | Abdurauf Fitratning "hurriyat" gazetasida bosilgan "Yurt qayg'usi" nomli she'rining matnlarini ko'chirib yozish va tabdil qilish | 4 |
| 11 | Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari | Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asaridagi "Xayrixohlik", "Munislik", "Sadoqat", "Adolat" matnlarini ko'chirib yozish va tabdil qilish | 4 |
| 12 | Elbekning "Go'zal yozg'ichlar" asari | Elbek "Go'zal yozg'ichlar" asaridagi "Maqtanchoq kishi" va "Qo'zg'ol" matnlarini o'qish, joriy yozuvga tabdil qilish | 4 |
| 13 | Sulaymon o'g'li Cho'lponning "She'rlar to'plami" asari | Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning "She'rlar to'plami" asaridagi "Go'zal Turkiston" she'rini eski o'zbek yozuviga ko'chirish | 4 |
| 14 | Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asaridagi "Atolat", "Xasosat" matnlari | Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asaridagi "Atolat", "Xasosat", "Raxovat", "Anoniyat" matnlarini ko'chirib yozish va tabdil qilish | 4 |
| 15 | Elbekning "Go'zal yozg'ichlar" asaridagi "Oydin kechalarda" va "Yetar endi" matnlari | Elbek "Go'zal yozg'ichlar" asaridagi "Oydin kechalarda" va "Yetar endi" matnlarini o'qish, joriy yozuvga tabdil qilish | 4 |
| | | **Jami:** | **60s** |

## V. O'QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI

**Asosiy adabiyotlar:**


1. Is'hoqov F. Eski o'zbek tili va yozuvi. Toshkent: 1995.
2. Azimov I., Tojiboyeva M., G'oziyev A. Eski o'zbek yozuvi. Toshkent: 2019

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

3. Jumaniyozov R. Eski o'zbek yozuvi. –Toshkent: 1989.
4. Devonu lug'otit turk. Indeks-lug'at / G'.A.Abdurahmonov va S.M. Mutallibov tahriri ostida. – T., 1967. – 546 b.
5. Древнетюркский словарь. Редакторы В.М.Наделяев, Д.М.Наси-лов, Э.Р.Тенишев, А.М.Щербак. – Л.: Наука, 1969. – 676 с.
6. Rahmonov V. Mumtoz so`z sehri. – T.: O'zbekiston, 2015. □ 440 b.

7. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. T.I–III/ Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.Mutallibov – T.: Fan, 1960 – 1963.
8. Nazarova X.Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari uchun qisqacha lug'at. –T.: Fan, 1972. – 190 b.
9. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili lug'atining turkiy qatlami. – T.: Universitet, 2001. – 352 b.
10. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. –T.: Universitet, 2003. – 600 b.
11. Umarov E.A. Eski o'zbek lug'atlari. – T., 1992. –36 b.
12. Shamsiyev P., Ibrohimov S. O'zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug'at. – T.: Fan, 1953, – 452 b.
13. Shamsiyev P. Navoiy asarlari lug'ati. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti,1972. 784 b.
14. Yusuf B. Navoiy tili lug'ati. 5 jildli. Birinchi jild. – T.: Sharq, 2018. –496 b.

**Axborot manbalari:**

1. http://www.sorbonne-universite.fr.
2. http://www.uni-leipzig.de.
3. http://www.hu-berlin.de.
4. http://www.lang.ox.ac.uk.
5. http://www.u-tokyo.ac.jp.
6. http://www.bsu.edu.az.
7. http://www.msu.ru.
8. http://www.ivran.ru.
9. http://www.spbu.ru.
10. http://www.istanbul.edu.tr.

## VI. O'QUV DASTURI HAQIDA MA'LUMOT

| |
|---|
| O'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2022 yil "___" "______" dagi "___" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| **Kafedra mudiri:** "Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik" kafedrasi mudiri, f.f.d., dotsent R. Zohidov__________________ (imzo) |
| **Tuzuvchi:** "Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik" kafedrasi dotsenti<br>A. Azizullah__________________ (imzo) |
| **Taqrizchilar:** |
| |



| |
|---|
| ToshDO'TAU, Tarjima nazariyasi va amaliyot kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD.<br>H. Turdiyeva __________________ (imzo)<br>ToshDO'TAU, "Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik kafedrasi dotsent v.v., f.f.b.f.d.<br>U.Mahmudov __________________ (imzo) |